

**JAMOAT TRANSPORT YO`NALISHLARINI MURAKKABLIK
DARAJASINI BAHOLASH USLUBI**

Abdullayeva Shahzodaxon Fazliddin qizi

Toshkent davlat transport universiteti

MEUVi-4 magistratura talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada jamoat transporti yo`nalishlari tadqiqi, ularning o`tkazuvchanligini yaxshilash choralari Respublika miqyosida ko`rib chiqiladi.

Kalit so`zlar: Jamoat transporti, o`tkazuvchanlik, metod, yo`nalish, samaradorlik.

KIRISH

Jamoatchilik yo`lovchi transporti bu mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishning muhim omili hisoblanadi. Ammo agar shaharda korxonalar, savdo markazlari, turli xizmat ko`rsatish joylarining hududdagi joylashuv zichligi past darajada bo`lsa, unda shaxsiy transportni ahamiyati oshadi. Aksincha, agar mazkur zichlik yuqori darajada bo`lsa, unda jamoatchilik yo`lovchi transportini qo`llash yuqori iqtisodiy samaradorlikni ta`minlaydi [1–3].

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Yo`lovchilar aylanmasi deyilganda bajarilish lozim bo`lgan ish hajmi yoki yo`lovchilar tashish bo`yicha bajarilgan transport ishi tushuniladi. Yo`lovchilar aylanmasi ko`rsatgichi bajarilgan yo`lovchi kilometrlarda o`lchanadi. Bajarilgan yo`lovchi aylanmasi miqdori aholining serqatnovligi (yil davomida bir yashovchiga to`g`ri keluvchi transportdagi qatnovilar soni) va yo`lovchilar qatnovining o`rtacha masofa miqdoriga bog`likdir. Aholining serqatnovligiga shaharning planirovkasi (joylashuvi) ko`lami, aholining asosiy yo`lovchilar hosil bo`luvchi va yo`lovchilar qatnovi magistrallariga nisbatan joylashuvi xarakteriga, transport shahobchalarining rivojlanganlik darajasiga, harakatning muntazamligi, kira haqi miqdori va boshqalar bilan bog`likdir. Yo`lovchilar aylanmasining o`z qonuniyatlari bor va ularni yo`lovchilar tashishni to`g`ri tashkil etish hamda aholi talablarini to`la qondirish maqsadida doimo o`rganilib turilishi lozim [3,4].

Shahar kichik tumanlari yoki yirik transport uzellaridagi katta passajirlar oqimi passajir yo`llari yoki marshrutlarini tashkil etish asosi bo`lib, ular birgalikda shahar transport tarmog`ini tashkil etadi. Mavjud yirik shaharlarda passajirlarga xizmat qiluvchi shahar transporti turlari (metro, tramvay, trolleybus va avtobus) ichida eng ko`p tarqalgani avtobus transportidir. Passajirlar tashuvchi transportlarning u yoki bu turini qo`llash, eng avvalo, uning tashish xususiyati, boshlang`ich kapital xarajatlar miqdori va tashish tannarxiga bog`liqdir. Yirik shaharlarda passajirlar tashish

transportining barcha turlaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Texnik-ekspluatasion ko‘rsatkichlariga ko‘ra passajirlar transporti har qaysi turining eng oqilona ishlatilish joylari bor. Juda katta quvvatli passajirlar oqimi mavjud bo‘lganida, ayniqsa, markaziy joylarda yer usti transporti ishini yengillashtirishda metroning xizmati beqiyosdir; metroning bir yo‘nalishi soatiga 50-60 ming kishilik passajirlar oqimiga xizmat qila oladi [1,3]. Tramvay muhim ahamiyatli, katta quvvatli passajirlar oqimiga xizmat qiladi; metro yo‘nalishining davomi sifatida shahar tumanlarini shahar atrofi bilan bog‘lashda ko‘pincha tramvaydan foydalaniladi. Bir tramvay yo‘li, undagi vagonlar soniga ko‘ra, soatiga 15-18 ming passajirlarga xizmatqila oladi. Sutkasiga kamida 5 minglik passajirlar oqimi bo‘lgandagina tramvay yo‘llarini ko‘rish maqsadga muvofiqdir. Trolleybus passajirlar oqimi kam bo‘lmagan hollarda tramvayni shaharning asosiy yo‘nalishlarida almashtirishda hamda shaharni uning atrofi bilan birlashtirishda qo‘llaniladi; bir trolleybus yo‘li soatiga 5-9 minglik passajirlar oqimiga xizmat etishi mumkin [3].

Respublikamizda transportning barcha turlari bo‘yicha yo‘lovchi tashish 2020 yilga nisbatan 2021 yilda 696,1 mln. kishini ortishiga, yo‘lovchi aylanmasi esa 136,7 mlrd. yo‘lovchi-kmga yetib, 13,3 % ga o‘sdi (1-jadval).

2021 yil davomida avtomobil transportida jami 28,5 trln. so‘mlik xizmatlar bajarilgan bo‘lib, transportning barcha turlarida jami bajarilgan ishlarning 53 foiziga to‘g‘ri keladi. Shuningdek, avtomobil transportida ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi YaIM ning 4,9%, jami ko‘rsatilgan xizmatlarning esa 12,9 foizini tashkil etdi.

1-jadval Transport sohasida yillar kesimida tashilgan yo‘lovchilar miqdori

№	Asosiy faoliyat turi bo‘yicha ko‘rsatkichlar	O‘lchov birligi	2020 yil	2021 yil
1	Yo‘lovchi tashish	<i>ming. yo‘lovchi</i>	5233100,6	5929177,3
	temir yo‘l transporti		6 200,0	7666,3
	havo transporti		1 902,1	5 414,1
	avtomobil transporti		5 192 944,1	5 758 400,6
	metropoliten		38 800,0	155 125,0
	tramvay		1 225,0	2 257,0
	trolleybus		131,5	314,3
2	Yo‘lovchi aylanmasi	<i>mln. yo‘lovchi/km</i>	120687,5	136740,6
	temir yo‘l transporti		2422,1	2994,9
	havo transporti		6355,1	18089,21
	avtomobil transporti		111 595,9	129 570,0
	metropoliten		282,8	1130,95
	tramvay		1,225	2,257001
	trolleybus		5,0	11,0

Bugungi kun holatiga yo‘lovchi tashish faoliyatini amalga oshiruvchi jami 105499 ta avtotransport vositalari litsenziyalangan bo‘lib, shundan 94299 tasi yengil avtomobil, 7980 ta avtobusga, 3220 tasi mikroavtobusga to‘g‘ri keladi.

Transport turlari bo‘yicha yo‘lovchi tashish tarkibida avtomobil transporti yetakchilik qilmoqda. Uning jami yo‘lovchi tashish hajmidagi ulushi - 97,12 %ni tashkil etdi (1-rasm).



1-rasm. Transport turlari bo‘yicha yo‘lovchilarni tashish tarkibi, % (2021 yil yanvar-dekabr oylari uchun)

Transport xizmatlari ko‘rsatish ijtimoiy xizmatlar ishlab chiqarish sohasida yetakchi o‘rinni egallab, nafaqat uning YIMdagi ulushining o‘zgarishi, balki natural ko‘rinishdagi faoliyat ko‘rsatkichlarining o‘zgarishini ham taxlil qilish muhim ahamiyatga ega. Chunki transport tizimining rivojlanishi iqtisodiyot va ijtimoiy sohaning boshqa tarmoqlari rivojlanishi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, unga ushbu tarmoqlar tomonidan, yuk va yo‘lovchilar tashish xajmi handa sifatiga qo‘yiluvchi talablar bilan bir qatorda, sohaning o‘z-o‘zini rivojlantira olish imkoniyatlari, ularni yetarlicha daromad olish va uning hisobidan sohaga investitsiyalar jalb qila olish talablari qo‘yiladi.

XULOSA VA MUNOZARA

Milliy iqtisodiyot o‘rishining zamonaviy tendensiyalariga ko‘ra, yalpi ichki mahsulot (YaIM) tarkibida xizmatlar barqaror o‘sib bormoqda va bu o‘sish keying o‘n yillikda umumjahon miqyosi darajasiga yetishi mumkin.

Transport tizimi faoliyatining rivojlanishini tahlil qilish va uning mamlakat iqtisodiyotidagi rivojlanishidagi o‘rnini baholashga oid ko‘plab izlanishlar horijiy va mamlakatimiz olimlari tomonidan amalga oshirilgan bo‘lib, ularda transportda tashish qonuniyatlari shakllanishi va uni boshqarish usullarini tadqiq etish, iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari uchun ham muhim ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. Bulavina L.V. Shaharlarda transport tarmog'i va marshrut tizimini loyihalash va baholash. - Yekaterinburg: Ural universiteti nashriyoti, 2014. - 48 b.
2. To'xtaboev M. A., Turg'unov I. B. Ko'chalar chorrahasida tirbandlik // Tabiiy fanlar jurnali "Aniq fan. – 2022 yil.
3. Mamirov U., To'xtaboyev M., Rahmonov B. Veloyo'l loyihasini ishlab chiqishning ahamiyati // Tabiiy fanlar jurnali "Aniq fan. - 2022. - b. 5.
4. Soliyev X. va boshqalar. Tezyurar yo'lovchi yo'nalishlarini tashkil etish // Natural Science jurnali "Aniq fan. – 2022. – yo'q. 129. - b. 9-11.